

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17719527>

XORIJIY MAMLAKATLARDA MAHALLA TIZIMIGA O‘XSHASH INSTITUTLAR TAJRIBASI

Imomova Nozimaxon Avazxonovna

Sotsiologiya yo‘nalishi bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Baxromova Madinaxon Farxodjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti magistranti

gulchexra1777@mail.ru +998 901621777

Annotatsiya - Mazkur maqolada xorijiy mamlakatlarda mahalla tizimiga o‘xshash o‘zini o‘zi boshqarish institutlari shakllanishi, rivojlanish yo‘nalishlari va ularning jamiyat hayotidagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqotda Turkiya, Janubiy Koreya, Indoneziya, Yaponiya, Germaniya va Fransiya kabi davlatlar misolida mahalla tizimiga o‘xshash fuqarolik institutlari faoliyati o‘rganilgan. Ularning boshqaruv tuzilmasi, ijtimoiy hamkorlik mexanizmlari hamda aholining o‘zini o‘zi boshqarishdagi ishtiroki solishtirma tahlil asosida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, xorijiy tajriba O‘zbekistonda mahalla institutini yanada takomillashtirishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan ilg‘or amaliyotlarni aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari mahalla tizimining ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashdagi o‘rnini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: mahalla tizimi, o‘zini o‘zi boshqarish, raqamli boshqaruv, fuqarolik nazorati, xorij tajribasi, strategiya.

KIRISH

Mahalla tizimi O‘zbekiston jamiyatida qadimiy ijtimoiy institutlardan biri bo‘lib, aholining o‘zini ozi boshqarish, o‘zaro yordam va hamjihatlikni ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Mahalla — fuqarolik jamiyatining poydevori, davlat va xalq o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2022–2026 yillar” mamlakatni har tomonlama modernizatsiya qilish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va aholining turmush darajasini oshirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan muhim hujjatdir. Mazkur strategiyada “Inson qadri uchun” tamoyili asosiy g‘oya sifatida belgilangan va barcha islohotlarning markazida fuqarolarning manfaatlarini turadi [1]. Strategiyada jamiyatning eng quyi bo‘g‘ini — mahalla institutiga alohida e‘tibor qaratilgan. Chunki mahalla tizimi aholining ijtimoiy muammolarini joyida hal etish, fuqarolarning davlat bilan muloqotini yo‘lga qo‘yish hamda ijtimoiy barqarorlikni

ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois Taraqqiyot strategiyasining 5-ustuvor yo'nalishida "Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash" alohida maqsad sifatida belgilangan [2].

Strategiyada quyidagi vazifalar mahalla tizimini rivojlantirish bilan bevosita bog'liq:

- Har bir oilaning muammosini "mahalla darajasida" o'rganish va hal etish;
- Mahalla fuqarolar yig'inlarini aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda asosiy bo'g'inga aylantirish;
- "Raqamli mahalla" axborot tizimini joriy etish;
- Mahalla yetakchilarining malakasini oshirish va ularni moddiy jihatdan rag'batlantirish.

Ushbu maqsadlar mahalla tizimini zamonaviy, innovatsion boshqaruv tamoyillariga asoslangan mustaqil ijtimoiy institut sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Mahalla tizimi O'zbekiston jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutganligi bois uning samaradorligini oshirishda xorijiy davlatlardagi o'zini o'zi boshqarish institutlari tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi kunda davlat boshqaruvini markazsizlashtirish, fuqarolarning bevosita ishtirokini kengaytirish yo'nalishida xalqaro tajriba keng qo'llanilmoqda [3].

Bugungi globallashtirish davrida ijtimoiy boshqaruvning demokratik shakllari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, dunyoning turli mamlakatlarida mahalla tizimiga o'xshash o'zini o'zi boshqarish institutlari shakllangan. Ular fuqarolarning boshqaruvdagi ishtirokini ta'minlash, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va mahalliy muammolarni tezkor hal etishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — xorijiy mamlakatlarda mahalla tizimiga o'xshash jamoaviy boshqaruv shakllarini o'rganish, ularning faoliyat mexanizmlarini tahlil qilish hamda O'zbekiston tajribasi bilan qiyoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot yuzasidan yurtimizda faoliyat yuritgan taniqli olimlarining ilmiy tadqiqotlarida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda mahalla instituti o'rnining ijtimoiy-falsafiy tahlili va bu bo'yicha ularning fikrlari, shuningdek, Prezidentimizning mahalla instituti bo'yicha olib borayotgan ishlari hamda qonun va qarorlar mazmuni bo'yicha fikrlar bayon etilgan.

Mahalla tizimini chuqur o'rganish va uni innovatsion usullar yordamida yanada rivojlantirish borasida bir qator olimlar, jumladan: M.Rasulov. Mahalla instituti va fuqarolik jamiyati asoslari, N.Yusupova. O'zbekistonda mahalla tizimini raqamlashtirish: holat va istiqbollari, A. Karimov Mahalla institutining ijtimoiy boshqaruvdagi o'rni masalalarini o'rganganliklari muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash joiz. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada

qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi oila, xotin-qizlar va keksalarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlik o'rnatish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi ekanligi belgilab qo'yilganligi ushbu sohada amalga oshirilishi kutilgan ishlar uchun ulkan qadam bo'ldi [4].

METODOLOGIYA

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va sotsiologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Ma'lumotlar xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari, davlat statistik agentliklari, ilmiy maqolalar hamda nashrlar asosida tahlil qilindi.

Tadqiqot quyidagi mamlakatlar tajribasini o'z ichiga oladi: Turkiya, Janubiy Koreya, Indoneziya, Yaponiya, Germaniya va Fransiya.

Har bir mamlakatdagi o'zini o'zi boshqarish institutlari O'zbekiston mahalla tizimi bilan qiyoslab o'rganildi.

NATIJALAR

Turkiyada mahalliy o'zini o'zi boshqarishning eng kichik birligi — mahalladir. Har bir mahallaga muxtor rahbarlik qiladi, u fuqarolar tomonidan saylanadi. Muxtor fuqarolarning ijtimoiy ehtiyojlarini aniqlash, yordam dasturlarini muvofiqlashtirish, ijtimoiy adolat va birdamlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Bu tizim O'zbekistondagi mahalla fuqarolar yig'iniga juda o'xshaydi — fuqarolar manfaatini himoya qiladi, lekin davlatdan mustaqil faoliyat yuritadi[5]. Muhtarlar aholi tomonidan saylanadi va ularning vakolatiga quyidagilar kiradi: fuqarolarning shaxsiy hujjatlarini ro'yxatga olish, ijtimoiy muammolarni yuqori tashkilotlarga yetkazish, politsiya bilan hamkorlikda xavfsizlikni ta'minlash hamda mahalla byudjeti va infratuzilma loyihalarini nazorat qilish.

So'nggi yillarda Turkiyada "E-Muhtar" loyihasi joriy etilib, mahalla faoliyatini raqamlashtirish, aholi murojaatlarini onlayn shaklda qabul qilish imkoniyati yaratilgan. Bu tajriba O'zbekistonning "Raqamli mahalla" loyihasi bilan uyg'unlik kasb etadi.

Janubiy Koreya tajribasi

Janubiy Koreyada dong va tong deb nomlangan mahalliy birliklar mavjud. Har bir dongda ma'muriy rahbar bo'lib, u ijtimoiy xizmatlar, xavfsizlik va ekologik nazoratni amalga oshiradi.

Bu birliklar orqali aholining o'zini o'zi boshqarish madaniyati mustahkamlanadi. Masalan, Seul shahridagi dong idoralari mahalla aholisining muammolarini to'g'ridan-to'g'ri onlayn platforma orqali hokimiyatga yetkazish tizimini joriy etgan [6]. Har bir "Dong"da fuqarolarning ijtimoiy holatini tahlil qiluvchi elektron ma'lumotlar bazasi mavjud bo'lib, ijtimoiy xizmatlar yagona platforma orqali

ko'rsatiladi. Shuningdek, mahalla yetakchilarining malakasini oshirish uchun "Fuqarolik boshqaruvi akademiyasi" faoliyat yuritadi.

Bu tizim davlat va fuqarolarning hamkorligini mustahkamlaydi. Koreya tajribasi O'zbekiston uchun shundan iboratki, mahalla yetakchilarining bilimini oshirishga davlat darajasida e'tibor qaratilishi zarur

Indoneziya tajribasi

Indoneziyada Rukun Tetangga (RT) va Rukun Warga (RW) tizimlari mavjud. Ular ijtimoiy birdamlik, xavfsizlik, ekologiya va yordam dasturlarini tashkil etishda faol ishtirok etadi.

RT/RW tizimi o'z mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy birdamlik va fuqarolik hamkorligi tamoyillariga asoslanadi [7]. Indoneziyada "Desa" (qishloq) va "Kelurahan" (mahalla) tizimi konstitutsiyaviy darajada mustaqil o'zini o'zi boshqarish organi sifatida e'tirof etilgan. Har bir mahalla o'z byudjetiga ega bo'lib, davlatdan to'g'ridan-to'g'ri grantlar oladi. 2023-yilda "Desa Fund" dasturi orqali 74 mingdan ortiq mahalla ijtimoiy infratuzilma va bandlik loyihalarini amalga oshirgan.

Indoneziya tajribasining muhim jihati — "ochiq byudjet" tamoyili. Har bir loyiha fuqarolar ishtirokida muhokama qilinadi va bu shaffoflikni ta'minlaydi. Mazkur yondashuv O'zbekiston mahalla tizimi uchun ham ahamiyatli bo'lib, fuqarolik nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston uchun quyidagi yo'nalishlar dolzarb hisoblanadi:

1. Raqamli boshqaruvni joriy etish.

Turkiyaning "E-Muhtar" tizimi asosida "Raqamli mahalla"ni aholining barcha ijtimoiy xizmatlari bilan integratsiya qilish.

2. Mahalla yetakchilari uchun doimiy ta'lim platformasi yaratish.

Janubiy Koreya misolida "Mahalla akademiyasi"ni tashkil etish orqali rahbarlarning malakasini oshirish.

3. Fuqarolik nazorati va ochiq byudjet tizimini joriy etish.

Indoneziya tajribasidan kelib chiqib, mahalla byudjeti va loyihalarini fuqarolar ishtirokida muhokama qilish mexanizmini yaratish.

4. Mahallalararo raqobat tizimini yo'lga qo'yish.

Innovatsion loyihalar, ijtimoiy xizmatlar sifati bo'yicha eng faol mahallalarni aniqlash orqali tizim samaradorligini oshirish.

Bu yo'nalishlar mahalla tizimida ijtimoiy innovatsiyalarni shakllantirishga, fuqarolik jamiyatini mustahkamlashga hamda davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yaponiya tajribasi

Yaponiyada chonaikai yoki jichikai nomli mahalliy jamoalar mavjud. Bu jamoalar aholining o'zini o'zi boshqarishining eng faol shaklidir. Ular ko'ngillilar asosida ishlaydi, ammo davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Chonaikai aholining xavfsizlik, sog‘liqni saqlash, tozalik, tabiiy ofatlar paytida yordam kabi sohalarda faoliyat yuritadi[8].

Yaponiyada “Chōnaikai” (shahar yoki tuman mahallasi) va “Jichikai” (fuqarolik o‘zini o‘zi boshqarish birlashmasi) — bu mahalliy hamjamiyat asosida tashkil topgan, davlatdan mustaqil, fuqarolarning ixtiyoriy birlashmasidir. U O‘zbekiston mahalla tizimiga o‘xshab, aholining o‘zaro yordam, tartib-intizom, ijtimoiy birdamlik va hudud xavfsizligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Har bir hududda Chōnaikai raisi, kotibi va bir nechta qo‘mitalar (tozalik, xavfsizlik, madaniyat, yoshlar, ayollar ishlari va boshqalar) faoliyat yuritadi.

Ular aholi tomonidan saylanadi va ko‘pincha ixtiyoriy asosda, jamoa manfaatlari yo‘lida ishlaydi.

Tizimning asosiy vazifalari:

Mahallaning tozaligi, xavfsizligi va ekologik muhitini saqlash;

Yangi aholini qabul qilish, qariyalar va nogironlarga yordam berish;

Tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini) paytida aholining o‘zaro hamkorligini tashkil etish;

Bayramlar, madaniy tadbirlar va jamoaviy ishlarda faollikni ta’minlash;

Aholi va mahalliy hokimiyat o‘rtasida vositachilik qilish.

Har bir xonadon “Chōnaikai”ga a‘zo bo‘lishi tavsiya etiladi (bu majburiy emas, ammo deyarli barcha aholi qatnashadi).

Uy-joy egalari, yoshlar, nafaqaxo‘rlar ham jamoaviy yig‘inlarda qatnashadi va muhim qarorlarni birgalikda muhokama qiladi.

O‘zbekiston mahalla tizimi kabi, Chōnaikai ham mahalliy darajada aholini birlashtiradi, ijtimoiy hamkorlikni kuchaytiradi.

Har ikkisi ham tarbiyaviy, ma’naviy va ijtimoiy birdamlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Fuqarolar o‘zaro yordam, xayriya, va qo‘shnichilik qadriyatlarini saqlash orqali jamiyat barqarorligiga hissa qo‘shadi. Yaponiyada “Chōnaikai” nodavlat va notijorat tashkilot sifatida faoliyat yuritadi; davlat tomonidan moliyalashtirilmaydi. A‘zolik ixtiyoriy, lekin jamoa qadriyati kuchli bo‘lgani uchun deyarli barcha aholi unda faol ishtirok etadi.

Yaponlar bu tizim orqali ijtimoiy intizom va o‘zaro hurmat madaniyatini mustahkamlaydi. Mahalliy muammolarni hal etishda davlat emas, balki aholining o‘zi tashabbus ko‘rsatadi.

Yaponiyaning “Chōnaikai” tizimi — fuqarolarning o‘zaro mas’uliyatini oshirish, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va mahalliy muammolarni tezkor hal etish bo‘yicha eng samarali modellaridan biridir. Ushbu tajriba O‘zbekiston mahalla tizimining fuqarolik faolligini kuchaytirish va nodavlatlik tamoyillarini joriy etish yo‘lida foydali tajriba bo‘lishi mumkin.

Germaniya tajribasi

Germaniyada Ortsbeirat (mahalla kengashi) va Gemeinderat (fuqarolar kengashi) tizimlari mavjud. Bu organlar aholi vakillaridan iborat bo‘lib, mahalliy

hokimiyat organlariga maslahat beradi, takliflar kiritadi va joylardagi muammolarni hal etishda bevosita ishtirok etadi.

Tizimning mohiyati shundaki, Germaniyada Gemeinde — bu mahalliy oʻzini oʻzi boshqarishning eng past boʻgʻini, yaʼni Oʻzbekistondagi mahalla institutiga oʻxshash ijtimoiy-boshqaruv tizimidir. U fuqarolarning yashash joyi boʻyicha birlashuvi, hududiy hamjamiyat manfaatlarini ifodalovchi va ularni davlat hokimiyatidan mustaqil ravishda hal etuvchi tuzilma sifatida faoliyat yuritadi.

Har bir Gemeinde oʻzining mahalliy kengashi (Gemeinderat) va burgomistr (Bürgermeister) – yaʼni mer tomonidan boshqariladi.

Gemeinderat – saylov orqali shakllanadi va mahalliy siyosat, byudjet, ijtimoiy loyihalar uchun javobgar.

Bürgermeister – kengash tomonidan saylanadi, ijro hokimiyatini amalga oshiradi.

Ushbu tizimning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

ijtimoiy infratuzilmani (yoʻllar, maktablar, bolalar bogʻchalari, tibbiyot punktlari) boshqarish;

aholiga kommunal xizmatlar koʻrsatish;

madaniy hayotni rivojlantirish, ijtimoiy birdamlikni taʼminlash;

qariyalar, yoshlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga yordam koʻrsatish.

Germaniyada fuqarolar mahalliy referendumlar, fuqarolik yigʻinlari yoki maslahat kengashlari (Bürgerversammlung) orqali mahalliy muammolarni hal qilishda bevosita ishtirok etadi. Bu — fuqarolik faolligini oshiruvchi muhim demokratik mexanizmdir.

Har ikki tizimda ham fuqarolarning oʻz hududidagi muammolarni oʻzaro hamkorlikda hal etishi asosiy tamoyildir.

Mahalliy muhitni yaxshilash, ijtimoiy birdamlikni kuchaytirish va aholining ishtirokini taʼminlash umumiy maqsaddir.

Mahalla raisi kabi, Germaniyada Bürgermeister mahalliy hayot markazida turadi.

Germaniyada Gemeinde huquqiy shaxs hisoblanadi va oʻz mol-mulkiga, byudjetiga hamda soliqlar yigʻish huquqiga ega.

Oʻzbekistondagi mahalla asosan ijtimoiy va maʼnaviy ishlar bilan shugʻullansa, Gemeinde iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy vakolatlarga ham ega.

Germaniyada mahalliy boshqaruv federal tizim doirasida mustaqil, Oʻzbekistonda esa mahallalar davlat tizimining bir qismi sifatida faoliyat yuritadi.

Gemeinde tizimi fuqarolarning jamiyat hayotida faol ishtirokini taʼminlab, ijtimoiy barqarorlik va birdamlikni mustahkamlaydi. Ushbu tajriba Oʻzbekistonda mahalla institutini modernizatsiya qilish, uning iqtisodiy mustaqilligini oshirishda foydali boʻlishi mumkin.

Fransiya tajribasi

Fransiyada eng kichik ma'muriy birlik — “commune” hisoblanadi. Har bir commune o'z kengashiga ega bo'lib, u aholining turmush darajasini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish, mahalla tadbirlarini tashkil etish kabi vazifalarni bajaradi [9]. Har bir kommuning o'z meriyasi (mairie) — mahalliy hokimiyati bo'lib, u mer (maire) boshchiligida ishlaydi. Mer fuqarolar tomonidan saylanadi va davlat hamda aholining manfaatlarini muvofiqlashtiradi.

“Commune” hududdagi infratuzilma (yo'llar, bog'lar, maktablar)ni boshqarish, ijtimoiy yordam va xizmatlarni tashkil etish, madaniy tadbirlar va jamoaviy hayotni rivojlantirish, nikoh, tug'ilish, o'limni ro'yxatga olish kabi fuqarolik holati masalalarini yuritish kabi vazifalarni bajaradi.

Fuqarolar mahalliy kengash (conseil municipal) orqali qarorlar qabul qilishda ishtirok etadi. Bu kengash mahalliy byudjetni tasdiqlaydi va turmush sifati bilan bog'liq tashabbuslarni ilgari suradi.

Fransiyada 34 mingdan ortiq kommun mavjud. Ularning har biri aholisi sonidan qat'i nazar o'z mustaqil boshqaruviga ega. Kichik kommunlarda “fuqarolar yig'inlari” (assemblée des habitants) o'tkazilib, muammolar jamoaviy muhokama qilinadi.

Kommun tizimi mahalla institutiga o'xshash, chunki u ham fuqarolarning o'z hududidagi ijtimoiy hayotda faol ishtirokini, hamjihatlikni va o'zaro yordamni rag'batlantiradi.

Fransiyada kommunlar huquqiy jihatdan mustaqil shaxs hisoblanadi va o'z byudjetiga ega. O'zbekistondagi mahalla esa asosan ijtimoiy-ma'naviy markaz sifatida faoliyat yuritadi, moliyaviy mustaqillik darajasi esa pastroq.

Bundan tashqari, katta shaharlar quartier tizimi orqali har bir mahallada fuqarolar yig'ilishlarini o'tkazadi[10].

MUHOKAMA

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, deyarli barcha mamlakatlarda mahalla tizimiga o'xshash ijtimoiy boshqaruv shakllari mavjud. Ularning barchasida umumiy jihatlar — fuqarolarning o'zaro hamkorligi, ijtimoiy birdamlik, mahalliy muammolarni joyida hal etish tamoyillari ustuvor hisoblanadi.

O'zbekiston mahalla tizimi ham shunday maqsadlarga xizmat qiladi. Biroq xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, bu tizimni yanada samarali qilish uchun quyidagi yo'nalishlarda islohotlar zarur:

- mahalla faoliyatini raqamlashtirish;
- mahalla liderlari malakasini oshirish;
- fuqarolik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;
- mahallalarni ijtimoiy innovatsiyalar markaziga aylantirish.

Bu tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish mahalla tizimining ijtimoiy barqarorlikdagi rolini kuchaytiradi.

XULOSA

Xorijiy mamlakatlarda mahalla tizimiga o'xshash institutlar ijtimoiy boshqaruvning samarali shakli sifatida faoliyat yuritmoqda. Turkiya, Koreya, Indoneziya, Yaponiya, Germaniya va Fransiya tajribalari shuni ko'rsatadiki, aholining o'zini o'zi boshqaruvdagi ishtiroki jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining kafolatidir. Mazkur tajribalar O'zbekiston uchun foydali bo'lib, mahalla tizimini takomillashtirish va uni fuqarolik jamiyatining markaziy bo'g'iniga aylantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, mahalla tizimi muvaffaqiyatining asosiy omillari — raqamlashtirish, doimiy ta'lim, fuqarolik nazorati va ochiqlik tamoyillaridir. Ushbu yondashuvlar O'zbekiston mahalla tizimini modernizatsiya qilishda amaliy natija berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, PF-60-son, “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2022–2026”, 2022-yil 28-yanvar.
2. Taraqqiyot strategiyasi 2022–2026. 5-ustuvor yo'nalish: “Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash”.
3. A. Karimov (2022). Mahalla tizimining rivojlanishida xorij tajribasining ahamiyati. Toshkent: Ijtimoiy tadqiqotlar markazi.
4. Sh.M.Mirziyoyev “Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni 2020-yil 18-fevral
5. Republic of Turkey Ministry of Interior. (2023). Muhtar System Overview. Ankara.
6. Korea Local Governance Association. (2022). Community-Based Management in Korea. Seoul.
7. Ministry of Home Affairs of Indonesia. (2023). Desa and Kelurahan Governance Report. Jakarta.
8. OECD (2023). Open Budget Practices in Southeast Asia. Paris: OECD Publishing.
9. French Ministry of the Interior. (2020). The Role of Communes in Local Democracy. Paris.
10. OECD (2021). Local Governance and Citizen Participation in Asia. Paris: OECD Publishing.